

## Qo'shchiga

Qo'shchi bobom uxlamaydi sahar bo'lsa,  
Qishda uxlab qo'sh haydaydi bahor bo'lsa.  
Qo'sh haydamay non yeganlar nonga to'ymas!  
Buni yegan qo'shchi bobo tik o'turmas,  
Dehqonchilik qo'sh haydamay qilib bo'lmas,  
Qo'sh haydamay yurgan kishi dehqon emas!  
Shuning uchun qo'shchi bobom o'xshamaydi,  
Bahor bo'ldi, qo'sh haydashga bel bog'laydi.  
Qo'shchida bor omoch bilan bo'yinturuq.  
Bahor bo'lsa kerak bo'lar ulov, urug',  
Boyga berib qo'shchilarni qo'ymang quruq!  
Qo'shchi to'ymas ekan hech kim bo'lmaydi to'q!  
Mana endi qo'shchi bobom qo'shin haydar,  
Qo'shin haydab "paxta" ekar "bug'doy" ekar!

*A.Toji (Marg'ilon)*  
**"Farg'ona" gazetasi. 1923 yil 3-aprel**